



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 426 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
Sattarov Farrux Nuridinovich	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
D. K. Ibadullayev	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
Isabekova Dilafuz Shermirzayevna	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
Юсупова Элеонора Фердинандовна	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
M. D. Boynazarova	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
Нормуратов Абдулла Саппарович	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
Normuratov Abdulla Sapparovich	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
Omonova Charos Baxodir qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
Abdumannan Maxammatov	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimurning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari 198 Salomov Abdurasul Axmadovich</p> <p>Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi</p> <p>Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi</p> <p>Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna</p> <p>Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич</p> <p>Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna</p> <p>Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati 223 X. Xalilova, N. Niyazova</p> <p>Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response 227 Makhmudova Ujiloy Bakhtiyorovna</p> <p>Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments 230 Turumova Marjona Bakhodirovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi</p> <p>Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich</p> <p>Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari 241 Umarov Qobiljon</p> <p>Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari 245 Jannazarova Juldizxan Alliyar qizi</p> <p>Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi</p> <p>Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek 253 Khaydarova Guzalkhon</p> <p>Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna</p> <p>Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev</p> <p>Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna</p> <p>Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi</p> <p>Algebra fanini o'rganishda talabning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi</p> <p>Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна</p>
-------------------------------------	--



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
Турикова Лазокат Машрабовна	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
Javohir Baxtiyorovich Shukurov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
Holikulova Feruza Xasanovna	
Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning agressiv xulq-atvorga ta'siri.....	309
Tosheva Sayyora Raxmonqulovna	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	314
Nurmatova Iroda Toxtasinovna, Qutlimuratova Dilnoza Oybek qizi	
O'quv materiallarini didaktik prinsiplar asosida bayon qilishning nazariy-amaliy asoslari.....	318
Turdiyeva Navruza Sheraliyevna	
Raqamli va globallashtirilgan muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.....	323
Avazova Xidoyat Zafar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilar nutqini boyitish ("Bog'bon va nihol" rivoyati misolida).....	327
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Abduxalilova Mohinur To'raqul qizi	
Qoraqalpog'iston cho'l yaylovlarning holatiga katta qumsichqonlar ta'sirini baholash.....	331
Adilbayeva Genjexan	
O'zbekiston zaminida uyg'onish - renessans hodisasining yuz berishi: shakllanishi, musulmon va insoniyat dunyosi taraqqiyotidagi o'rni.....	335
Choriyev Mirjalol Baxtiyor o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ekologik kompetentligini badiiy-loyihaviy faoliyat orqali rivojlantirish metodikasi.....	340
Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish orqali orfoqrafik va orfoepik bilimlarni shakllantirish.....	344
Mamasidikova Naima Toxirjon qizi	
Talabalarining mustaqil o'qish va o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning metakognitiv aspektlari.....	348
Mirsobitova Parvina Bahodir qizi	
Sun'iy intellekt vositasida talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari..	351
Muminov Zokir Sharop o'g'li	
Ta'lim muhitining o'quvchilarning emotsional holatiga ta'siri.....	354
Nurmatov Nurhayot Nurziyat o'g'li, Otaqurbonbova Nigina Rustam qizi	
STEAM yondashuvi asosida o'simliklar fiziologiyasi fanida o'quv mazmunini didaktik qayta tashkil etish xususiyatlari.....	358
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	
Особенности развития эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста.....	363
Мирзаева Наргиза	
Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari.....	367
Abdanbekova Nilufar Rixsiyevna	
O'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari.....	370
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	373
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
Inkluziv ta'limda pedagoglarning mahorati va pedagogik innovatsiyalar.....	378
Raxmonova Gullola Shavkatovna	
The Impact of Collaborative Writing Activities on EFL University Students' Essay Writing Skills: A Classroom-Based Study.....	382
Shovkiewa Munisa Shonazar kizi	



ChatGPT va generativ AI vositalarining o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari.....	386
Sotivoldiyev Shohruhmirzo Abdumalik o'g'li	
O'qituvchi shaxsining pedagogik etikasi va kasbiy madaniyati.....	390
Sultonova Nargiza Nigmatovna	
Raqamli transformatsiya sharoitida talabalarining media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	393
Zaxiriddinova Shaxlo, Nurova Manzura, Murodova Fayoza	
Talabalar matematik tafakkurini rivojlantirishda analizdan masalalar yechish strategiyalari	397
Zaxiriddinova Shaxlo, Tufliyeva Roziya, Ismatullayev Javohir	
Роль социальной компетенции в процессе интенсивного когнитивного развития	402
З. Ф. Азизова	
Роль научного знания в повышении качества образования	406
Сагатова Диёра Абдулазиз кизи	
Методы использование информационных технологий в научном исследовании качества образования в ВУЗе.....	409
Уразова Марина Батыровна, Туленова Карима Жандаровна, Генжебаева Кундуз Саламат кизи	
Академический стресс и формирование механизма "самообвинения" у студентов.....	412
Хошимова Дилорам Анваровна, Немаджанова Наргиза	
OTM, mahalla va oilalarda barqaror ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirish tizimi.....	416
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich, Abdilaxatov Zafar Abdigapirovich	
O'smirlar deviant xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bosh omil sifatida.....	421
Olloberdiyeva Buoysha Baxromjon qizi, Tohirova Go'zaloy Davronbek qizi	



O'SMIRLAR DEVIANT XULQ- ATVORI SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY TARMOQLARGA QARAMLIK BOSH OMIL SIFATIDA

Oloberdiyeva Buoysha Baxromjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Pedagogika-Psixologiya va Inklyuziv ta'lim fakulteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

ORCID:0009-0005-7932-225X

Tohirova Go'zaloy Davronbek qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPUniversiteti,
Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

ORCID: 0009-0004-4325-0920

Annotatsiya: Mazkur bitiruv malakaviy ishda o'smirlar xulq-atvoriga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Ishda ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar hayotidagi o'rni, ularning psixologik holati va xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, deviant xulq-atvorning shakllanish omillari, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kiberbulling va kiberjinoyatlar bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlardan ongli va xavfsiz foydalanish, o'smirlarni virtual muhitdagi salbiy ta'sirlardan himoya qilish hamda samarali profilaktik choralarini ishlab chiqish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlar xulq-atvori, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muhit, psixologik ta'sir, deviant xulq-atvor, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kiberbulling, kiberjinoyat, profilaktika choralarini, xavfsiz foydalanish.

Abstract: This graduation thesis provides a scientific analysis of the impact of social networks and the virtual environment on adolescent behavior. It examines the role of social media in adolescents' lives and analyzes its effects on their psychological state and behavior in a comprehensive manner. Particular attention is given to the factors contributing to deviant behavior, social media addiction, as well as issues of cyberbullying and cybercrime. The study also substantiates approaches for the safe and responsible use of social networks, protection of adolescents from negative digital influences, and the development of effective preventive measures.

Key words: adolescent behavior, social networks, virtual environment, psychological impact, deviant behavior, social media addiction, cyberbullying, cybercrime, preventive measures, safe use.

Аннотация: В данной выпускной квалификационной работе научно обосновано влияние социальных сетей и виртуальной среды на поведение подростков. В работе комплексно анализируется роль социальных сетей в жизни подростков, а также их влияние на психологическое состояние и поведение. Особое внимание уделено факторам формирования девиантного поведения, зависимости от социальных сетей, а также проблемам кибербуллинга и киберпреступности. В рамках исследования обоснованы вопросы безопасного и осознанного использования социальных сетей, защиты подростков от негативного влияния виртуальной среды и разработки эффективных профилактических мер.

Ключевые слова: поведение подростков, социальные сети, виртуальная среда, психологическое влияние, девиантное поведение, зависимость от социальных сетей, кибербуллинг, киберпреступность, профилактические меры, безопасное использование.

KIRISH

Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining muhim qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, o'smirlar ushbu raqamli muhitning faol foydalanuvchilari bo'lib, ular orqali muloqot qiladi, axborot oladi va o'zini namoyon etadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarning psixologik holati va xulq-atvoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Virtual muhitdagi turli omillar, jumladan anonimlik, cheklanmagan axborot oqimi va ijtimoiy ta'sirlar o'smirlar xulqida ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayoni faqat ijobiy jihatlar bilan cheklanib qolmay, balki ayrim salbiy holatlarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlash va ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Shuningdek, 2019-yil 19-martdagi PF-5712-son Farmoni bilan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishga yo'naltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda o'smirlar deviant xulq-atvori shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni masalasi Psixologiya, Sotsiologiya hamda Pedagogika yo'nalishlarida keng o'rganilmoqda. Ilmiy manbalarda deviant xulq-atvor tushunchasi jamiyatda qabul qilingan me'yor va qadriyatlardan og'ish sifatida talqin qilinib, uning shakllanishida individual-psixologik, ijtimoiy va axborot muhitiga oid omillar muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Klassik nazariyalarga murojaat qiladigan bo'lsak, Émile Durkheim deviantlikni ijtimoiy me'yorlarning zaiflashuvi bilan bog'laydi, ya'ni anomiya holatida shaxs xulq-atvori beqarorlashadi.

Keyinchalik Robert K. Merton ushbu g'oyani rivojlantirib, jamiyatdagi maqsadlar va ularga erishish vositalari o'rtasidagi nomuvofiqlik deviant xulqni yuzaga keltirishini asoslab berdi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ushbu nazariyalar raqamli muhitga moslashtirilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanayotgan yangi "me'yorlar" o'smirlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etiladi.

O'smirlar rivojlanishini tushuntirishda Erik Erikson tomonidan ilgari surilgan psixosotsial rivojlanish nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, o'smirlik davrida shaxs "identifikatsiya inqirozi"ni boshdan kechiradi va o'z "men"ini izlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonda o'ziga xos "virtual identifikatsiya maydoni"ni yaratib, o'smirlarning o'zini namoyon etish, tan olinishi va ijtimoiy maqomga erishish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Biroq, aynan shu ehtiyojlarning ortiqcha va nazoratsiz qondirilishi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi doirasida Albert Bandura o'smirlar xulq-atvori kuzatish va taqlid orqali shakllanishini asoslab bergan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik alohida muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda. Xususan, Mark D. Griffiths tomonidan ishlab chiqilgan xulqiy qaramlik konsepsiyasiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish psixologik bog'liqlik, vaqtni nazorat qila olmaslik va real hayot faoliyatining cheklanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday qaramlik o'smirlarda impulsivlik, agressivlik, ijtimoiy izolyatsiya va deviant xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ilmiy manbalarda kiberbulling va kiberjinoyatchilik ham deviant xulq-atvorning zamonaviy ko'rinishlari sifatida baholanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikning yuqoriligi, nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi va virtual muloqotning o'ziga xosligi o'smirlarni salbiy xatti-harakatlarga moyil qilishi mumkin. Tadqiqotchilar bu jarayonda emotsional beqarorlik, past o'zini baholash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi muhim risk omillari ekanligini ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik o'smirlar deviant xulq-atvori shakllanishida muhim, ba'zi holatlarda esa yetakchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayon ko'p omilli bo'lib, oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ta'lim tizimi va shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan o'zaro bog'liq holda yuzaga keladi. Mazkur yondashuv muammoni kompleks tarzda o'rganish va samarali profilaktik choralarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning obyekti o'smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayoni hamda ushbu jarayonning ularning psixologik holati va xulq-atvoriga ta'siridir. Tadqiqot doirasida o'smirlarning virtual muhitdagi faoliyati, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish xususiyatlari, axborotni qabul qilish va unga munosabat bildirish jarayonlari ob'ekt sifatida o'rganiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar xulq-atvorida yuzaga keladigan o'zgarishlarga, jumladan deviant xulq-atvor shakllanishiga ta'siri ham mazkur ishning obyekti sifatida qaraladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi o'smirlar deviant xulq-atvoriga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda deviant xulq-atvorning shakllanish omillarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom va ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kiberbulling va kiberjinoyatlarning oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish ham mazkur ishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.



Tadqiqotning predmeti esa o'smirlar xulq-atvoriga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining psixologik va pedagogik mexanizmlari, ularning yuzaga kelish omillari hamda oldini olish yo'llaridir. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kiberbulling va virtual muhit ta'sirida deviant xulq-atvor shakllanishi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom foydalanishni shakllantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar predmet sifatida o'rganiladi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy muhit va virtual muhitning o'smirlar deviant xulq-atvoriga ijtimoiy ta'sirlarning nazariy asoslarini tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar deviant xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash va unga qaramlikning sabablari hamda shakllarini tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom foydalanish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish, kiberbullingning o'smirlar psixologiyasiga ta'sirini tahlil qilish va profilaktikasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash, o'smirlar orasida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'smirlar xulq-atvoriga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning ta'siri kompleks tarzda o'rganilib, deviant xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kiberbulling va kiberjinoyatlar kabi zamonaviy muammolar psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi hamda ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Shuningdek, o'smirlar xulq-atvorida yuzaga keladigan o'zgarishlarning nazariy asoslari boyitilib, ushbu sohada mavjud ilmiy qarashlar kengaytirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mazkur empirik tadqiqot 144-maktabda, Yakkasaroy tumani hududida tahsil olayotgan 8-sinf o'quvchilari o'rtasida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 25 nafar respondent ishtirok etdi va ularning virtual muhitdan foydalanish darajasi hamda bu omilning xulq-atvoriga ta'siri foizlar asosida ilmiy tahlil qilindi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 72% i kuniga 3 soatdan ortiq vaqtini internetda o'tkazishini bildirgan. Bu ko'rsatkich virtual muhit o'smirlar hayotida muhim o'rin egallayotganini va ularning kundalik faoliyatiga sezilarli darajada integratsiyalashganini ko'rsatadi. Qolgan 28% o'quvchilar esa internetdan 1-3 soat oralig'ida foydalanishini qayd etgan.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi quyidagicha aniqlandi:

- Telegram - 88%
- TikTok - 80%
- Instagram - 68%

Mazkur natijalar o'smirlar orasida ayniqsa tezkor kommunikatsiya va qisqa, vizual kontentga asoslangan platformalarning ustunligini ko'rsatadi.



1-rasm: 144-maktab, Yakkasaroy tumani hududida 8-sinf (25 nafar) o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlili

Deviant xulq indikatorlari bo'yicha tahlil natijalari quyidagicha:

- respondentlarning 36% ida agressiv xatti-harakatlarga moyillik aniqlangan;
- 32% o'quvchilarda ijtimoiy izolyatsiya (yolg'izlikka moyillik) kuzatilgan;
- 28% respondent virtual muhitni real hayotdan ustun qo'yishini bildirgan;
- 24% holatda ota-ona nazorati yetarli emasligi aniqlangan.

Bundan tashqari, respondentlarning 44% i virtual muhitda kuzatilgan xatti-harakatlarni real hayotda takrorlashga moyilligini bildirgan. Ushbu ko'rsatkich o'smirlar xulq-atvori shakllanishida virtual kontentning bevosita ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.


Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, internetdan foydalanish davomiyligi ortgan sari agressivlik va ijtimoiy chekinish ko'rsatkichlari ham oshib boradi. Ayniqsa, 3 soatdan ortiq vaqtini virtual muhitda o'tkazuvchi o'quvchilar orasida deviant xulq elementlari nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lgan.

Umuman olganda, olingan empirik ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, virtual muhit o'smirlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va nazoratsiz foydalanilganda deviant xatti-harakatlarning shakllanishiga olib keluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur empirik tadqiqot 144-maktabda, Yakkasaroy tumani hududida tahsil olayotgan 9-sinf o'quvchilari o'rtasida psixodiagnostik test metodi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 25 nafar respondent ishtirok etdi va ularning internetdan foydalanish darajasi hamda psixologik holati kompleks tahlil qilindi.

Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 10 nafari (40%) da internetga qaramlikka moyillik aniqlangan. Ushbu ko'rsatkich o'smirlarning sezilarli qismi virtual muhit ta'siriga yuqori darajada tushayotganini bildiradi. Shuningdek, 8 nafar (32%) o'quvchida o'rtacha darajadagi bog'liqlik kuzatilib, ular potensial risk guruhini tashkil etadi. 7 nafar (28%) respondentda esa internetdan foydalanish past darajada ekanligi aniqlanib, bu guruh nisbatan barqaror hisoblanadi.

Emotsional holat ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, 9 nafar (36%) o'quvchida emotsional beqarorlik (asabiylik, tez jahllanish, affektiv reaksiyalar) kuzatilgan. 11 nafar (44%) respondentda emotsional holat o'rtacha darajada bo'lib, bu ularning psixologik barqarorligi to'liq shakllanmaganini anglatadi. Faqatgina 5 nafar (20%) o'quvchida barqaror psixologik holat aniqlangan.



2-rasm: Psixodiagnostik test natijalari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom foydalanishning muhim shartlaridan biri vaqtni samarali boshqarish va foydalanishni me'yorlash bo'lib, bu shaxsning kundalik faoliyatini muvozanatli tashkil etish va ortiqcha raqamli yuklamaning oldini olishga xizmat qiladi, ayniqsa o'smirlar davrida vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasining shakllanishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrda shaxs o'qish, dam olish va ijtimoiy faoliyat o'rtasida muvozanatni saqlashi zarur, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o'tkazish diqqatning pasayishi, uyqu rejimining buzilishi va psixologik charchoqqa olib kelishi mumkin, shu sababli foyda-



lanish vaqtini cheklash va aniq rejalashtirish muhim hisoblanadi, vaqtni boshqarish jarayonida kun tartibini tuzish, muhim vazifalarni ustuvorlashtirish va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uchun aniq vaqt oralig'ini belgilash samarali usullardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli detoks kabi usullar orqali vaqtincha ijtimoiy tarmoqlardan voz kechish ham shaxsning psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi, natijada shaxs real hayot faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratadi va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning oldi olinadi, shu sababli vaqtni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom foydalanishning muhim omili hisoblanadi.

Natijalar o'zaro qiyosiy tahlil qilinganda, internetga qaramlikka moyil bo'lgan o'quvchilar (10 nafar) orasida emotsional beqarorlik holatlari yuqori darajada uchrashi kuzatildi. Bu esa virtual muhitning o'smirlar psixikasiga bevosita va kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. O'rtacha darajadagi bog'liqlikka ega bo'lgan respondentlar (8 nafar) esa psixologik jihatdan nozik guruhni tashkil etib, ularda salbiy xulq-atvor shakllanish ehtimoli mavjud. Ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, internetdan ortiqcha foydalanish o'smirlar emotsional barqarorligining pasayishiga, affektiv reaksiyalarning kuchayishiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu holat esa o'z navbatida deviant xulq shakllanishi uchun psixologik zamin yaratadi.

Psixodiagnostik test natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, 9-sinf o'quvchilari orasida internetga qaramlikka moyillik va emotsional beqarorlik o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, o'smirlar orasida internetdan sog'lom foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, psixologik profilaktika ishlarini kuchaytirish hamda individual yondashuv asosida korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan sog'lom foydalanish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularda vaqtni boshqarish, psixologik o'zini nazorat qilish, raqamli gigiyena, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va real hamda virtual hayot o'rtasida muvozanatni saqlash kabi muhim jihatlari asoslab berildi. Ota-ona va pedagogik nazoratning ahamiyati, shuningdek, profilaktika va psixologik yordam choralari ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirini kamaytirishda samarali vosita sifatida baholandi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar xulq-atvoriga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, ularni to'g'ri boshqarish va ongli foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur bob natijalari o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida (PF-5106-son Farmon, 5-iyul). Toshkent.
2. G'aniyeva M. "O'smirlar xulq-atvorida deviantlik muammolari" // Pedagogika va psixologiya, 2020, №3.
3. Abdullayeva D. "Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta'siri" // Zamonaviy ta'lim, 2021, №5.
4. Steinberg, L., & Monahan, K. C. (2007). Age differences in resistance to peer influence. *Developmental Psychology*, 43(6), 1531-1543.
5. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2011). Online social networking and addiction: A review of the psychological literature. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 8(9), 3528-3552.
6. Anderson, C. A., & Bushman, B. J. (2002). Human aggression. *Annual Review of Psychology*, 53, 27-51.
7. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2011). Online social networking and addiction. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 8(9), 3528-3552.
8. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and statistical manual of mental disorders (5th ed.)*. American Psychiatric Publishing.
9. Young, K. S. (1998). Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior*, 1(3), 237-244.
10. Davletshin, M. G. (2004). *Yosh davrlar psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.